



LEGAL ANALYSIS AND QUALIFICATION ISSUES OF DOMESTIC CRIMES

Gulruh Akmalovna Shermatova*Independent Researcher at the Academy of Law Enforcement*Shermatovaguli1@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: domestic violence, corpus delicti, qualification, Criminal Code, judicial practice.

Received: 08.08.25**Accepted:** 09.08.25**Published:** 10.08.25

Abstract: This article analyzes the legal aspects and qualification issues of domestic violence crimes based on Article 126¹ of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The author focuses on the objective and subjective elements of the crime, practical challenges, and suggestions for improving judicial practice under this provision.

MAISHIY JINOYATLARNING YURIDIK TAHLILI VA KVALIFIKATSIYA QILISH MASALALARI

Gulruh Akmalovna Shermatova*Mustaqil izlanuvchisi**Huquqni muhofaza qilish akademiyasi*Shermatovaguli1@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: maishiy zoʻravonlik, jinoyat tarkibi, kvalifikatsiya, Jinoyat kodeksi, sud amaliyoti.

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi asosida maishiy zoʻravonlik jinoyatlarining yuridik tahlili hamda kvalifikatsiya qilish masalalari o'rganilgan. Muallif tomonidan ushbu jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilariga, amaliyotdagi murakkabliklarga hamda mazkur norma bo'yicha sud-huquq amaliyotini takomillashtirish yo'llariga e'tibor qaratilgan.

ЮРИДИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И КВАЛИФИКАЦИЯ БЫТОВЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Гулрух Акмаловна Шерматова*Независимый исследователь*

Академии правоохранительных органов
Shermatovaguli1@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: бытовое насилие, состав преступления, квалификация, Уголовный кодекс, судебная практика.

Аннотация: В данной статье на основе статьи 126¹ Уголовного кодекса Республики Узбекистан рассматривается юридический анализ и вопросы квалификации преступлений, связанных с бытовым насилием. Автор акцентирует внимание на объективных и субъективных признаках состава преступления, проблемах правоприменительной практики и путях совершенствования судебной практики по данной норме.

O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari, xususan, oilaviy munosabatlarda shaxs erkinligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Maishiy zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar qatorida Jinoyat kodeksiga kiritilgan 126¹-modda alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur modda oila va maishiy muhitda shaxsga nisbatan muntazam ravishda psixologik, jismoniy, iqtisodiy yoki jinsiy tazyiq o'tkazish harakatlarini jinoyat sifatida baholaydi. Maishiy jinoyatlar jamiyatdagi eng ko'p uchraydigan jinoyat turlaridan biri bo'lib ular oilaviy munosabatlarda yuzaga keladigan zo'ravonlik va boshqa huquqbuzarliklarni o'z ichiga oladi. Ushbu jinoyatlar nafaqat jabrlanuvchilarga jiddiy zarar yetkazadi, balki ijtimoiy muhit va jamiyat tinchligiga ham salbiy ta'sir ko'rastadi. Shuning uchunb maishiy jinoyatlarni yuridik jihatdan to'g'ri baholash, jinoyat huquqiy normalaribni rivojlantirish va ularni samarali kvalifikatsiya qilish muhimdir.

Mazkur maqolada jinoyat kodeksi 126¹- modda bo'yicha jinoyat tarkibining nazariy tahlili, kvalifikatsiya qilishdagi asosiy mezonlar, sud amaliyotidagi dolzarb muammolar hamda takomillashtirish bo'yicha takliflar yoritiladi.

Mazkur mavzuga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston va xorijiy kriminologiyada maishiy zo'ravonlik tushunchasi keng o'rganilgan. A. Mamatov va Z. Rasulova fikricha, maishiy zo'ravonlikning jinoyat sifatida kriminalizatsiya qilinishi inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga uyg'un keladi[1]. Xorijiy davlatlarning qonunchiligida maishiy jinoyatlar masalasi ham alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston va xorijiy kriminologiyada maishiy zo'ravonlik tushunchasi keng o'rganilgan. Xorijiy adabiyotlarda, xususan, BMTning Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka barham berish to'g'risidagi Deklaratsiyasida bu turdagi harakatlarning ijtimoiy xavfliligi alohida qayd etilgan[2]. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasining jinoyat kodeksida oiladagi zo'ravonlikka qarshin qattiq qonuniy choralar qo'llanadi va

jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish tizimi mavjud. Bundan tashqari, mahalliy sud amaliyoti bo'yicha tahlillar (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ma'lumotlari) ushbu moddaning tatbiq etilishida bir qator izohlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi[3].

— Maishiy jinoyatlar ko'pincha oilaviy nizolar va shaxsiy psixologik muammolardan kelib chiqadi. Zo'ravonlik qiluvchi shaxslarning ko'p holatlarda o'zaro nizolarni hal eta olmasligi, ruhiy bosim ostida bo'lishi jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Kriminologik tahlil shuni ko'rsatadiki, maishiy jinoyatlar ko'plab holatlarda takrorlanuvchi xarakterga ega bo'lib, jabrlanuvchining ruhiy va jismoniy sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tahdidni kuchaytiradi va uning oldini olish choralari sifatida nafaqat yuridik, balki ijtimoiy-psixologik usullarini ham keng o'rganishni ham talab qiladi. Maishiy jinoyat sifatida Jinoyat tarkibining obyektiv belgilarini tahlil qilinsa, JK 126¹-moddasiga muvofiq, maishiy zo'ravonlik muntazam ravishda yoki bir necha marotaba sodir etilishi mumkin. Obyektiv tomondan ushbu jinoyat quyidagi harakatlarni qamrab oladi:

- Jismoniy tazyiq – kaltaklash, tan jarohati yetkazish, sog'liqqa zarar etkazish;
- Psixologik tazyiq – qo'rqitish, haqorat qilish, tahqirlash;
- Iqtisodiy tazyiq – mol-mulkdan mahrum qilish, moddiy jihatdan to'sqinlik qilish;
- Jinsiy tazyiq – roziliksiz jinsiy aloqa yoki majburiy harakatlar.

Mazkur belgilarning aniq isbotlanishi uchun sud-tergov amaliyotida ekspertiza xulosalari, guvoh ko'rsatmalari va boshqa dalillar ahamiyatga ega bo'ladi[4].

Jinoyatning subyektiv tomoni va kvalifikatsiya masalalariga alohida toxtalib o'tish ham jinoyatni tahlil qilish uchun ahamiyatli hisoblanadi. Ushbu jinoyat subyektiv tomondan to'g'ridan-to'g'ri qasd bilan sodir etiladi. Aybdor shaxs o'zining xatti-harakati bilan jabrlanuvchiga muntazam zarar yetkazishni ko'zlaydi. Kvalifikatsiya qilishda asosiy mezon – zo'ravonlikning muntazamligi va tizimlilikidir.

Bir martalik tazyiqlar odatda ma'muriy javobgarlikka olib kelishi mumkin, ammo muntazam xatti-harakatlar jinoyat sifatida baholanadi[5].

Maishiy jinoyatlarni kvalifikatsiyalash bosqichida amaliyotdagi muammolarga ham e'tibor qaratish lozim. Jumladan, Sud amaliyotida eng katta muammo – dalillarni to'plash va muntazamlilikni isbotlashdir. Ko'pincha jabrlanuvchilar shaxsiy yoki ijtimoiy bosim sababli ariza berishdan voz kechadilar. Bu esa jinoyatni ochish va kvalifikatsiya qilishda qiyinchilik tug'diradi[6]. Maishiy jinoyatlarni tahlil qilishda ularning ijtimoiy-huquqiy jihatlarini har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, bu turdagi jinoyatlar ko'pincha yopiq ijtimoiy muhitda, ya'ni oila doirasida yoki yaqin munosabatlar doirasida sodir etilishi bilan ajralib turadi. Bu esa jinoyatning aniqlanishi

va tegishli huquqiy chora ko‘rilishini murakkablashtiradi. Ikkinchidan, bunday huquqbuzarliklar ko‘pincha o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning izdan chiqishiga sabab bo‘ladi, natijada jabrlanuvchining psixologik jarohatlanishi yanada chuqurlashadi. Uchinchidan, maishiy jinoyatlarning oldini olish va ularning profilaktikasi boshqa jinoyat turlariga nisbatan ko‘proq kompleks yondashuvni talab qiladi — bu yerda faqat huquqiy mexanizmlar emas, balki psixologik yordam, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hamda ma‘naviy-tarbiyaviy chora-tadbirlar ham muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oilaviy zo‘ravonlik va unga yaqin turdagi maishiy jinoyatlar bo‘yicha normativ-huquqiy asoslar sezilarli darajada takomillashtirildi. Xususan, Jinoyat kodeksiga kiritilgan 126¹-modda bilan “Oilaviy zo‘ravonlik” mustaqil jinoyat tarkibi sifatida e‘tirof etildi. Mazkur moddaning qonunchilikka kiritilishi, bir tomondan, oiladagi zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan shaxslarni himoya qilish mexanizmlarini mustahkamladi, ikkinchi tomondan esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun bunday jinoyatlarni aniq va to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish imkonini yaratdi.

Maishiy jinoyatlarni malakalashda bir qator dolzarb omillarga e‘tibor qaratish zarur. Avvalo, jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini to‘liq aniqlash lozim. Masalan, 126¹-modda doirasida javobgarlik masalasini belgilashda zo‘ravonlikning ko‘rinishlari (jismoniy, ruhiy yoki moddiy), uning davomiylik darajasi, takroriylik xususiyati, jabrlanuvchining holati kabi muhim holatlar inobatga olinadi. Shuningdek, bunday jinoyatlarning boshqa huquqbuzarlik turlaridan farqlanishi aniq belgilab berilishi lozim. Masalan, oilaviy zo‘ravonlikni tan jarohati yetkazish yoki bezorilikdan ajratib olish — jinoyatni noto‘g‘ri malakalash xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, maishiy jinoyatlarni to‘g‘ri baholashda jabrlanuvchining ijtimoiy zaif toifaga mansubligi va unga nisbatan ko‘rsatiladigan huquqiy himoya choralari alohida e‘tibor bilan ko‘rib chiqilishi lozim. Bundan tashqari, ayrim hollarda JK 126¹-moddasi bilan JKning boshqa moddalarini (masalan, 109-modda – qasddan badanga yengil shikast yetkazish) farqlashda ham chalkashliklar kuzatiladi. Bu esa to‘g‘ri kvalifikatsiya qo‘llashga salbiy ta‘sir qiladi.

Xulosa qilib aytganda, muallif ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishda quyidagi takomillashtirish choralari amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: • Maishiy zo‘ravonlik faktlarini aniqlashda ixtisoslashtirilgan protsessual tartib-taomillarni joriy etish – bu tergov organlariga zo‘ravonlikning yashirin shakllarini aniqlash imkonini beradi, shuningdek, jabrlanuvchining xavfsizligini ta‘minlashga xizmat qiladi;

• Sud-tergov tizimi vakillari uchun maqsadli metodik qo‘llanmalar va uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish – bu esa amaliyotda yagona yondashuvni shakllantirib, jinoyatni aniq va to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga ko‘maklashadi;

- Jabrlanuvchi shaxslarni himoya qilishga qaratilgan kompleks reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish – ayniqsa, ayollar, voyaga yetmaganlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlar uchun psixologik, huquqiy va ijtimoiy xizmatlarni birlashtirgan tizimli yondashuv joriy etilishi lozim;

- Jinoyat kodeksining 126¹-moddasi doirasidagi sud-amaliyotini doimiy monitoring qilish, tahlil qilish va rasmiy sharhlar tarzida yoritib borish – bu norma tatbiqidagi tafovutlarning oldini olib, huquqni bir xil qo'llash prinsipini mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan 126¹-moddaning amaliy ahamiyati juda katta bo'lib, u oilaviy zo'ravonlikka qarshi tizimli kurashni huquqiy jihatdan mustahkamladi. Ushbu norma oilaviy muhitda sodir etilayotgan zo'ravonlik harakatlarini alohida jinoyat sifatida huquqiy baholash imkonini yaratdi, shuningdek, jabrlanuvchilarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo'naltirilgan mexanizmlarni kuchaytirdi. Shu bilan birga, amaliyotda yuzaga kelayotgan muayyan qiyinchiliklar – xususan, jinoyatni noto'g'ri kvalifikatsiya qilish holatlari, protsessual aniqlikning yetishmasligi va amaliy tavsiyalarning yetarli emasligi – ushbu moddaning samarali qo'llanilishini cheklab qo'ymoqda. Mazkur holatlarni bartaraf etish uchun qonunchilikni izohlovchi normativ hujjatlar, metodik ko'rsatmalar hamda ijtimoiy-psixologik yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamatov A., Rasulova Z. Oila va maishiy zo'ravonlikning yuridik tahlili. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023.
2. UN General Assembly. Declaration on the Elimination of Violence against Women, A/RES/48/104, 1993.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Sud amaliyoti sharhlari to'plami, 2024-yil 1-chorak.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, 2024-yilgi tahriri.
5. Karimov S. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. – Toshkent: TDYuU, 2022.
6. Xolmatova D. Maishiy zo'ravonlik jinoyatlarini tergov qilishning xususiyatlari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar, 2024.